

PECULIARITIES OF MATERIAL CULTURE PATTERNS DURING THE KUSHAN EMPIRE

Karshiyev Izzatulla Uktamovich

Teacher of the 2nd Stage of TERDU,

Teacher of the 15th School of Shurchi District

Allaberdiyev Boymuhammad Suyun Oglu

Master of TERDU 2nd Stage

ANNOTATION

This article provides information about the culture and trade relations of the Kushan state.

Keywords: archaic, Hellenistic, antique, monumental, economic.

INTRODUCTION

O'rta Osiyoning qadimgi tarixini arxaik, ellistik va kushon – sosoniy davrlariga bo'lish mumkin. M.a. IV asrda Parfiya va Margiyona, Baqtriya va Sog'diyona Makedoniyalik Iskandar hukmronligi ostiga tushib qoladi.

Makedoniyalik Iskandar Salavka davlatini, O'rta Osiyo tarixida qadimgi dunyo – antik yoki ellistik davrni vujudga keltirdi. Antik davrda O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida katta o'zgarishlar roy bergan. O'lka viloyatlari Qadimgi Sharq va Gretsya, Makedoniya davlatlari bilan keng madaniy va savdo – sotiq aloqalarida bo'lgan. Bu davrda O'rta Osiyo xojaligi taraqqiy etdi, sug'orish tarmoqlari kengaytirildi va mukammallashtirildi. Ko'plab bo'sh yerlar o'zlashtirildi.

Manzilgohlar sug'orish tarmoqlari bo'yida joylashgan bolib, qal'alar ko'rinishida edi. Xorazmda bu davrda o'ziga xos madaniyat vujudga keldi. Bunda m.a. IV asrda ahamoniylardan mastaqil davlatga aylangan Xorazmning m.a. III – II asrlarda Yunon – Baqtriya va Parfiya tarkibiga kirmay, mustaqilligini saqlab qolganligi muhim omil boldi. Jonbosqal'a, Qoyqirilganqal'a yodgorliklari mazkur madaniyat namunalaridir. Jonbosqal'a m.a. IV – III asrlarga oid bolib, u ikki qator nishon tuynuklari bo'lgan devor bilan o'ralgan. Yagona ko'cha to'rtburchak shakldagi shaharni ikki qismga ajratib turgan. Otashparastlik ibodatxonalar shaharlarning eng katta imoratlari bo'lgan. Qo'yqirilganqal'a xarobalari ostidan aylana shaklda qurilgan ibodatxona goldiqlari topilgan bo'lib, olimlarning fikriga ko'ra m.a. IV – I asrlarga oid bu inshoot qadimda rasadxona bo'lgan. Eramiz boshlarida Kushon podsholigi tashkil topdi. So'g'd va Baqtrianing janubiy viloyatlari bu davlat tarkibiga kirgan bo'lib, podsholikning markazi shimoliy Hindistonda bolgan. Kushon shaharlarining qiyofasini Termiz (antik Demetriya) misolida ko'rish mumkin. Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayrитom, Zartepa, Qoratepa kabi madaniy yodgorliklar ham Kushon davriga oid. Dalvarzintepaning 7 ga. maydonda joylashgan arki devor va handaq bilan oralgan. Janubdan arkka ulanib ketgan shahardan kulollar mahallasi, oddiy va boy shaharliklarning uylari, shuningdek hammomlar ochilgan. Bu yerdan topilgan zodagonlarga tegishli turar joylar devorlari tasvir va haykallar bilan bezatilgan. 1971 yilda Dalvarzintepada oltindan yasalgan buyumlar xazinasi topilgan. Hammasi bo'lib 115 ta oltindan quyilgan va yasalgan buyumlar noyob san'at asarlaridir. Bu yerdan fil suyagidan

yasalgan shaxmat donalari ham topilgan. Termizga yaqin Ayrитом yonida Amudaryo suvidan m.a. I asrga oid tosh qavartma suratlar topilgan. Unda bo' fonida sozandalar, erkak va ayollarning suratlari ishlangan. Suratlardagi nisbat va harakat yunon haykallarini eslatadi, ishlanishida hind elementlari juda ko'p. Milodiy I – II asrlarda Xorazm ham Kushon podsholigi tarkibida bolgan. Bu vaqtida Xorazmda qurilgan qal'alar topildi, ular podsholikning shimoliy chegaralarini qo'riqlab turgan. III asr boshlarida Xorazm Kushon zulmidan qutulib, mahalliy podsholar oz pullarini zarb qila boshlaganlar. Tuproqqa'l'aning gullab – yashnashi shu davrga to'g'ri keladi. Shahar mudofaaa devorlari bilan oralgan, devor burchaklarida balandligi 25 metrga yetgan burjlar qurilgan. Markazdan o'tgan ko'cha shaharni ikki qismga ajratgan. Markaziy maydonda qasr va ibodatxonalar joylashgan. Ko'p qismi ikki qavatli bo'lgan qasr devorlari turli tasvirlar bilan bezatilgan, uning markazidagi zalda boshiga toj kiygan podsholar haykallari bolgan. Tuproqqa'l'adan oromiy yozuvida yozilgan butun bir arxiv hujjatlari topilgan.

Bu davrda O'rta Osiyo uchun dinlarning turli - tumanligi xosdir. Arxeologlar Eski Termiz, Ayrитом va Dalvarzintepada budda ibodatxonalar qoldiqlarini organganlar. Dalvarzintepada ostadonlar saqlanadigan maxsus imorat – «nous» ham topilgan, bu zardushtiylikka xosdir. Eski Termizdagi Qoratepa va Fayoztepadagi Buddha ibodatxonalarida osha davrdagi devoriy tasvirlar va haykaltaroshlik namunalari o'r ganilgan. Ilk orta asrlarda (IV - VII asrlar) O'rta Osiyo Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrga oid yodgorliklar yaxshi o'r ganilgan. Samarqandda VII asrga mansub monumental suratlar bilan bezatilgan saroy topilgan. So'g'd yozuviga qaraganda bu suratlarda elchilarni qabul qilish marosimi tasvirlangan. Afrosiyob shahar xarobalarida topilgan bu suratlar va inshootlar, turli buyumlar orqali so'g'diy xalqlarning hayot haqida ma'lumot olish mumkin. Zarafshonning yuqori oqimida Panjikent shahar xarobasi organilgan. Uning maydoni 19 hektar bolib, alohida turgan arkka ulanib ketgan shahar mavzelari devor bilan o'r algan. VII asrga oid saroy va ibodatxona devorlaridagi suratlar katta badiy ahamiyatga ega. Ulardagi asosiy tasvirlar O'rta Osiyoda mashhur qahramon Siyovushga bagishlangan. Buxorodan 40 km. G'arbda Varaxsha saroy xarobalarini joylashgan. Bu yerda VIII-IX asrlarga oid buxor-xudotlar saroyi topilgan. Saroy devorlari ganch oymakorlik naqshlari va fil mingan ovchilarning ov qilish manzarasi, turli tabiat manzaralari tasvirlangan suratlar bilan bezatilgan. Mustahkamlangan qo'rg'onlar – «ko'shklar» VI-VII asrlarda nafaqat Xorazmda, balki Marv va Samarqand atroflarida ham qurila boshlangan. VIII asrda O'rta Osiyo arablar tomonidan bosib olindi va Arab xalifaligi tarkibiga kirdi. Bu davr arxeologik topilmalarda oz aksini topgan. Badiiy san'atda ornament bezakchiligining taraqqiy etishi musulmonchilikda tirik mavjudotlarni tasvirlash ta'qiq etilganligi bilan bogliq edi. Samarqand va Buxoro devorlaridagi oyma naqshlar ozining gozalligi bilan hayratga soladi. IX asr oxiri - X asrda O'rta Osiyoda mahalliy sulola Somoniylar hukmronlik qilgan. Somoniylar davrida hunarmandchilik mahallalari bilan oralgan shaharlar osib borgan. Ilk orta asrlarda shaharlar qurilishi antik davrdagidan tamomila farq qiladi. Bu davrda muntazam rejallashtirish yoqolib boradi, mahallalar markaz atrofida betartib osib boradi. Orta asr shaharlari uch qismidan iborat bolgan: ark, shahriston va rabot. O'rta asr Samarqandi – Afrosiyobda yuqoridagi uchala qism ham mavjud bolgan. Shaharning turli tomonlarida ikkita kulollar mavzesi ochilgan. Sopol idishlar kulolchilik charxida yasalgan. VIII asrda yasalgan buyumlar orasida sirli idishlar uchraydi. Somoniylar davridagi idishlar oq sir

bilan qoplanib, jigarrang naqshlar solingan. Afrosiyobda suv keltirish uchun moljallangan sopol quvurlar topilgan. Orta asr Samarqandining kochalari tosh bilan qoplanganligini arxeologik topilmalar isbotlaydi. Arxeologik izlanishlar davrida ko`plab numizmatik materiallar ham uchraydi. Afrosiyobda Somoniylar davrida zarb etilgan dirhamlar – kumush tangalarning qolipi topilgan.

Kushon davlati davrining madaniyati. Kushon davri Markaziy Osiyo xalqlarini moddiy va ma'naviy madaniyatida jiddiy o'zgarishlar bo'lganligi bilan izohlanadi. Buyuk Kushonlar saltanatining taqdiri, ma'naviyati nuqtai nazaridan ayanchli tugadi, ya'ni o'z davrida uning tarixi va madaniyati deyarli yozilmadi. U haqda qadimgi ma'lumot juda kam, yozuv yodgorliklari ham unchalik ko'p emas. Markaziy Osiyoda mil. avv. IV-II asrlarda oraniy yozuv asosida Xorazm, Parfiya va So'g'd yozuvlari paydo bo'ladi. Kushon davriga kelib ular safiga yana bir yozuv-Kushon (Baqtriya) yozushi paydo bo'ladi. Dastlabki yodgorliklar Ayrithoshda va Ko'xna Termizda 30-yillarda ochilib, 60-yillarda davom ettirildi. Keyinchalik ko'xna Termiz yaqinidagi Qoratepa buddiylik ibodatxonasi, Fayztepa, Xolchoyi va Darvarzin ko'xna shaharchalar ochilib nixoyat darajada yuksak bo'lgan kushon madaniyati butun dunyoga mashhur bo'ldi. Ayrithosh ko'hna shahrining topilgan o'ylarning Kesh tog'iga ishlangan tosh tasvirlar (sharshara) asrimizning 30-40 yillaridayoq ma'lum edi. Bu peshtoqlarda gullarga burkangan, musiqa asboblari chalib turgan qizlar va do'mbira chalib turgan bolalarning tasviri tushurilgan. Surxondaryo viloyatining Denov shahri paxta dalalarining birida qchonlardir yirik shahar bo'lgan Xoxchayon yodgorligining qoldiqlari saqlanib qolgan. Shaharlarning paydo bo'lishi mil. avv. I ming yillikning o'rtalariga to'g'ri keladi.

Milloddan avvalgi 250yilda vujudga kelgan Yunon-Baqtiriya podsholigiga O'rta Osiyoning katta yerlari qatori Surxon vohasi ham qaragan. Bu podsholik davrida Surxondaryoda ishtimoiy -iqtisodiy munosabatlari rivojlanib ,sinfiy tabaqlanish ham kuchaydi .Shaharlar ravnaq topdi. Hunarmandchilik va tashqi savdo yuksaldi .Yunon ,Hind va Turon xalqlari madaniyati omuhtalashib, o'ziga xos yuksak madaniyat vujudga keldi. Shu davrga oid ko'hna binolarning harobalari Termiz atroflaridan ham topilgan.

Milod boshlarida Surxondaryo Kushonlar davlati tarkibiga kirdi. Kushonlar dastlab Toxarlar davlati o'rnida bir asr davomida 5 qabilaga bo'linib yashaganlar. Bulardan Guyshuan (kushon)qabilasi yabg'uziy (hukumroni) Kudzula Kadfiz milodiy 1-asrda qolgan 4 qabilani bo'y sundirib, o'zini hukumdor deb e'lon qildi. U Surxondaryodagi Dalvarzintepani poytaxt qiladi. Milod boshlarida Xitoydan Kushon podsholigi mulklari ,jumladan Dalvarzintepa ,Termiz orqali O'rta dengiz sohili mamlakatlariga dastlabki karvon yo'li -Buyuk ipak yo'lining janubiy tarmoqlaridan biri o'tgan edi. Bu yo'l tashqi savdo va mamlakatlaro madaniyatning rivojlanishida juda katta ahamiyat kasb etdi .Kushon podsholigi markazlashgan quldorlik davlatiga aylandi. Aholi asosan budda dinining Mahayana mazxabiga e'tiqod qilgan. Dalvarzintepadan topilgan budda haykali shundan dalolat beradi. Kushon davlatining asoschisi Kudzula Kadfiz tezda Hindistonni bosib oldi va shimoliy Baqtriyani o'ziga bo'ysundirdi. Kadfiz II, ayniqsa, Kanishka podsholigida Kushon davlati kengayib,o'z davrida Rim, Parfiya Xan (Xitoy) sultanatlari bilan tenglashadigan qudratli sultanatga aylandi. Hozirgi butun Hindiston ,Pokiston ,Afg'oniston ,O'rta Osiyoning janubiy yerlari unga qaragan . Kushon davlati miloddan avvalgi I-asrning 2-yarmidan milodning III-asri o'rtalarigacha hukmronlik surdi.

Surxondaryo hududida Kushon davriga oid arxeologik yodgorliklar juda ko'p va xilma xildir Ahamoniylar va Yunon -Baqtriya davridan bu yerda hozircha 40 manzil shahar ma'lum bo'lgan bo'lsa, Kushon davriga oid 120 dan ortiq shahar va qishloq aniqlandi. Aholi asosan Sherobod va Surxondaryo havzasi yoqalab joylashgan edi .Aholining joylashishi, katta kichik shaharlarning vujudga kelishi sug'orish shahobchalari bilan bog'liq albatta. Sug'orish havzalaridagi markaz shaxarlar atrofida katta kichik shaxarchalar, qarorgohlar joylashib ,ular har jihatdan markaz shaxarga bo'y sunar edi .Markaz shaxarlar esa o'z navbatida Surxondaryodagi eng yirik shaxar -Termizga qaram edi. Shu tarzda aholi turar joylari katta shaxar (Chog'oniyon ,Termiz) o'rtacha shaxar (Dalvarzintepa,Zartepa) shaxarcha (Jondavlatepa,Talashgantepa va boshqalar) yirik va mayda qishloqlarga bo'lindi. Topilgan 120 yodgorlikdan 40 tasini katta shaxarlar jumlasiga kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ziyonet.uz
2. Madaniyatshunoslik- ziyonet kutubxona
3. Arxeologiya
4. Ртвеладзе Э. Древние монеты Средней Азии
5. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi.-T.: Sharq.2001.
6. Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati.-T.: Fan.1990
7. Болдыров А.Н., Брагинский И.С. Рукописная книга в культуре народов Востока.книга вторая. –М.:Наука.1988.
8. Ртвеладзе Э. Древние монеты Средней Азии...
9. Пугаченкова Г.А. Халчаян. -Т.
10. 10.Гафуров В. Г. Кушанская эпоха и мировая цивилизация. –М.: 1968
11. 11.Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. –Т.: 1990.